SULAYMON XO‘JAEV



Xo‘jaev Sulaymon (1892-1938) O‘zbek milliy kinosining asoschilaridan biri. Toshkent shahrida Komolon mahallasida istiqomat qilguvchi dehqon Umarxo‘ja o‘g‘li Sulaymonxo‘ja va Oftob oyim oilasida tug‘ilgan.Otasidan uch yoshida yetim qolgach, onasi va bobosi Toshxo‘ja qo‘lida tarbiya topdi. Uning dunyoqarshining shakllanishida mudarris tog‘alari Najmiddinxo‘ja va Eshonxo‘ja, shoir va tarjimon (“Temurnoma” va “Lug‘ati salos” muallifi) Salohiddinxo‘ja – Pir tarbiyasida voyaga yetdi. Eski usuldagi maktabni tugatgach, Ko‘kaldosh madrasasida tahsil oldi. “Turon” drama havaskorlari uyushmasiga a’zo bo‘ladi va akterlik san’atiga muhabbat qo‘yadi (1914-1916), Mahmudxo‘ja Behbudiy nomidagi maktabda o‘qituvchi (1918-1923). Sulaymon Xo‘jaev davlat ishlariga jalb qilinib Pomir viloyat inqilob qo‘mitasi a’zosi, Murg‘ob Sharqiy inqilobiy qo‘mita a’zosi sifatida ishlagan (1924-1925), Toshkent pochta-telegraf kursida mudir (1925-1926). Kino san’atiga qiziqishi tufayli Maskovdagi Davlat kinematografiya institutida tahsil olgan (1927-1932). “Ravot qashqirlari” (Sodiq), “Chodra” (yosh muhandis), “So‘ngi bek” (Abdurahmon), “Avliyo qizi” (Abdunabiboy eshon), “Toshlar isyoni” (raykom kotibi) filmlarida rol o‘ynagan. Ssenariynavis va rejissyor sifatida “Mashina va paxta”, 1916 yil qo‘zg‘oloni haqida “Tong oldidan” filmini suratga olgan va asarni kitob holida chop ettirgan.

Sulaymon Xo‘jaev 1930 yil, 4 dekabrda GPU tomonidan hibsga olingan va 6 yilga hukm qilingan. Hukmni Sazlagning “Malek” tutqungohida o‘tkazgan. Surgun muddati tugashiga oz qolgan paytda 1938 yil 5 iyulda qayta sud qilinib otuvga hukm qilingan.